



SCIENTIFIC ACADEMY

DEVELOPMENT & SCIENCE & EDUCATION



"TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA UNGA QARATILGAN YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



28.02.2023

Ta'lim sohasidagi
xizmatlari uchun

“Ta’lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun”
xalqaro ko’rik tanlovi



«SCIENTIFIC ACADEMY»

Ilmiy tadqiqotlar markazi ©

“Ta’lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va
unga qaratilgan yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
doirasidagi “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun” xalqaro
ko’rik tanlovining

MATERIALLARI TO’PLAMI

28-fevral,

1 QISM

O‘ZBEKISTON

2023

“Ta’lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun”
xalqaro ko’rik tanlovi

SO‘Z BOSHI

Zamimimiz azaldan buyuk alloma va mutafakkirlar yurti bo‘lib kelgan. O‘zbekiston jahon ilm-fan rivojiga benazir hissa qo‘shgan Buyuk allomalar vatanidir. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi nomlarining o‘zi zarhal harfli mo‘tabar kitob bo‘lardi.

Buyuk ajdodlarini e‘zozlagan yurt. ularning ilmiy merosi va g‘oyalarini o‘zining ilmiy taraqqiyotining ustuni hisoblagan millat. rivojlanishning o‘ziga xos “uyg‘onish” davriga zamin yaratadi.

Dunyoda ilmning chegarasi yo‘qdir. Ilm-fan, xususan ilmiy faoliyat hozirgi kunda dunyodagi istalgan mamlakat rivoji uchun o‘ta muhimdir. Chunki ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohalari o‘z rivojida ilm-fan yutuqlari, ilmiy ishlanmalardan keng foydalanib kelmoqda.

Aytish joizki. mamlakatimizda ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste‘dod egalarini aniqlash va ijtimoiy muhofaza qilish hamda rag‘batlantirish bo‘yicha “BEST PUBLICATION” ilm-ma‘rifat markazi ham amaliy sa’y-harakatlar olib borilmoqda.

Yurtboshimiz boshchiligida ilm-fan rivoji yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarga daxldorlik hisi bilan yashash, har birimizning kasb-hunarimiz orqali tinimsiz harakat qilishni, yangiliklar yaratish va Yangi O‘zbekiston timsolining bir ifodasi bo‘lish biz uchun ham farz. hain qarzdor.

Hech shubhasiz, tengdoshlarimizdagi ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoq, kelajakda shu el koriga yaraydigan, xalq manfaatlarini o‘ylaydigan barkamol inson bo‘lib yetishish istagi, o‘zlarining yuksak aql salohiyatlari bilan yurtimiz tamadduniga salmoqli hissa qo‘shadilar.

Ushbu kitobda “Intellektual izlanuvchi” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan bir guruh Vatanimizning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qo‘shayotgan, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan, shuningdek o‘qishda va mehnat faoliyatida yutuqlarga erishganlarning hayoti va ilmiy faoliyati o‘rin olgan.

Muxtasar aytganda, ilm – saodat kaliti, ilm – xazina va eng buyuk sharafdir...

"Ta'lim sohasim rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar"
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi "Ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun"
xalqaro ko'rik tanlovi

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ	
Xudoyberganova Shaxodat Baxtiyor qizi <i>"ILK QADAM" O'QUV DASTURIDA NUTQ, MULOQOT, O'QISH HAMDA YOZISH MALAKALARINI YORITILISHI</i>	13
Kanatbay Kurbanbayev <i>YANGI O'ZBEKISTONDA YANGICHA TA'LIM!</i>	18
Mirzayeva Feruza Xoldarovna <i>«CHIZMACHILIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI»</i>	22
Avazbek Rasulov Faxriddin o'g'li <i>AХБОРОТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ РАҚАМЛИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА</i>	26
Allanova M. M. <i>TEACHING METHODS FOR YOUNG LEARNERS</i>	29
Rahmatullayeva Feruza Otamurod qizi <i>МАКТАВГАЧА ВА БОШLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI</i>	32
Бердышева Альбина Сағынбевна <i>ҚАРАҚАЛПАҚСТАН ҚАЗАҚТАРЫ СӨЙЛЕСІМІНДЕГІ КИІЗ ҮЙГЕ БАЙЛАНЫСТЫ ДИАЛЕКТ СӨЗДЕР</i>	34
Muzaffarova Hayitgul Nesibovna Toshturdiyeva Zaira <i>ERTA YOSHDAGI NUTQ NU'QSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR OILASINING IJTIMOIIY MOSLASHUVI VA INTEGRATSIYASI</i>	36
Курбонова З.Ч Бабаджанова Ш.А. <i>COVID-19 ДА ТРОМБОФИЛИТЯ ГЕНЛАРИ ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ ПРОГНОСТИК АҲАМИЯТИ</i>	40
Каримов Нуриддин Қурбон ўғли <i>АМУДАРЁ ҲАВЗАСИДАГИ КИЧИК ДАРЁЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ</i>	50
Bazarova Shirin Desyarovna <i>CAUSES AND PREVENTION FACTORS OF PEDAGOGICAL CONFLICTS IN PRIMARY CLASS TEACHING ACTIVITY</i>	57
Noraliyeva Sohobxon Nematjonovna <i>BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH – PRILS TIZIMIDAN FOYDALANISH</i>	62
И.Ш.Алқаров <i>ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ МЕХАНИЗМИ ВА МЕТОДЛАРИ</i>	64
Адамбой Болтабаев Садуллаевич <i>КЛОПЫ-МИРИДЫ (HEMIPTERA-HETEROPTERA: MIRIDAE) ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ</i>	72
Jumayev Xusniddin Sirojovich <i>ELEKTR ENERGIYASIDA HARAKATLANUVCHI KO'P MAQSADLI TAJRIBA-O'QUV MASHQ MASHINASINING PROTOTIPINI ISHLAB SHIQISH</i>	74
Ortiqova Maftuna <i>ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G'AZALLARINI MUQOYASA TA'LIM METODI ORQALI O'QITISH USULLARI.</i>	82
Odinayev Abbosbek Akram og'li	85

“Ta’lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun”
xalqaro ko’rik tanlovi

Abdusamadov Zafar <i>PROBLEMS OF CULTURE BOUND TERMS TRANSLATION IN SIMULTANEOUS INTERPRETING</i>	
Abdibayeva Gulnora <i>BUGUNGI KUNDA BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI KASB - HUNARGA YO'NALTIRISHDA AMALIY YONDASHUV</i>	89
Abdubannayeva Hurriyatxon Abobakr qizi <i>O'QUVCHILARNI KIMYO DARSLARIGA QIZIQTIRISH VA QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR BERISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR</i>	92
Abdullayev Umidjon <i>TEKNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV.</i>	100
Abdullayeva Feruza Baxodirovna <i>DARSLARDA NOAN'ANAVIY METODLARNING SAMARADORLIGI</i>	102
Abdulova Roziyahon Xoshimjonovnaman <i>TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</i>	105
Abduolimova Shohnozha Allsher qizi <i>TIL - MILLAT KO'ZGUSI</i>	107
Abduraximova Muxtarama Orziqul qizi <i>OPTIK VAQT REFLEKTOMETERI</i>	114
Mamadallyeva Hilolaxon O'sarovna <i>ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHLARI</i>	116
Adilova Risolat Xasanovna <i>AXBOROT-KUTUBXONA SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI</i>	120
Iqboloy Adizova Istamovna <i>O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA ORIFA AYOLLARNING O'RNI</i>	124
Madalov Akramjon Sirojiddin o'g'li <i>BINOLARNING SUV TA'MINOTI VA YONG'IN PROFILAKTIKA JIHOZLARI</i>	131
Zayirov Alisher Salatdin uli <i>SAN'AT VA MADANIYAT MENEJMENTI SOHASI BOSHQARUV FUNKTSIYALARI</i>	135
Allashova Sayyora Rajabovna <i>O'ZBEK TILI DARSLARIDA BUYUK AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH</i>	137
Amonlikova Zehiniso Hamidovna <i>4-SINF O'QUVCHILARIGA "KICHIK VATAN" MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI</i>	140
Isokov Kholmukhammad <i>IDIOMS THAT DESCRIBE DIFFERENT EMOTIONS OF HUMAN BEINGS</i>	144
Rustamova Adash Eshankulovna <i>THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ONLINE EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL FOREIGN LANGUAGE TEACHING</i>	149
Botirova Mashxura Rasuljonovna <i>USING INNOVATIVE METHODS AND TECHNOLOGIES OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES</i>	156
М.М.Жўраева <i>ЭРТАКЛАРДА МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР (ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ЭРТАКЛАРИ МИСОЛИДА)</i>	160
Artikova Nodiraxon Kodirjonovna	166

O’ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA ORIFA AYOLLARNING O’RNI

Iqboloy Adizova Istamovna

filologiya fanlari doktori, professor
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o’zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola jahon adabiyotshunosligida orifa ayollar siymosining talqin etilishi masalasiga bag’ishlangan. Bu muammomi yoritishda, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarining erkin ijodiy tarjimasini hisoblangan, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” nomli so’fiylar tazkirasini ob’ekt sifatida olingan. Asarda Navoiy keltirgan 35 orifa ayol qiyofasi, faoliyati va dunyoqarashi yoritilgan. Falsafiy fikrlarining bugungi ijtimoiy hayotimizdagi o’rni va vazifalari aniqlangan. Navoiy asaridagi ma’lumotlar taniqli nemis olimasi Annamari Shimmel fikrlari bilan qiyoslangan.

Tayanch tushunchalar: Tazkira, so’fiy, mutasavvuf, vahdat, ishq, irfon, uns, xavf.

Abstract: This article is devoted to the interpretation of Sufi women in world literature. In clarifying this problem, a free creative translation of Abdurahman Jami's work "Nafahot ul-uns" was taken as the object of Alisher Navoi's "Nasoyim ul-Muhabbat". The image, activity and outlook of 35 Sufi women cited by Navoi are covered in the work. The role and tasks of philosophical thoughts in our social life today have been determined. The information in Navoi's work is compared with the ideas of the famous German scientist Annamari Schimmel.

Key words: Tazkira, Sufi, Mystic, Unity, Love, Irfan, Uns, Danger.

Аннотация: Данная статья посвящена интерпретации суфийских женщин в мировой литературе. При выяснении этой проблемы в качестве объекта «Насаим уль-мухаббат» Алишера Навои был взят вольный творческий перевод произведения Абдурахмана Джамии «Нафахот ул-унс». В работе освещаются образ, деятельность и мировоззрение 35 суфийских женщин, на которые ссылается Навои. Определены роль и задачи философской мысли в нашей общественной жизни сегодня. Информация в работе Навои сопоставляется с представлениями известного немецкого ученого Аннамари Шиммель.

Ключевые слова: Тазкира, суфий, мутасаввуф, вахдат, ишқ, ирфон, унс, хавф.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida tasavvuf va tariqatlar, so’fiylik va mutasavvuflik kabi masalalar borasida ko’plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo bu jarayonda ayollarning o’rnini yoritishga etarli e’tibor qaratilmagan. Lekin dunyo adabiyotshunosligi tomonidan tan olingan, taniqli nemis olimasi Annamari Shimmel o’zining bir qancha asarlarida, xususan, “Jonon mening jomimda”[4] kitobida Islom olamida xotin-qizlarning o’rni masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Ayrim bahsli fikr-mulohazalar uchrashiga qaramay, olimaning ilmiy xulosalari muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama. Annamari Shimmel islom dunyosida ayollarga munosabat maqomini yoritarkan, “So’fiy ayollar” [4, 43-64] maqolasida orifa ayollar faoliyatini baholashga harakat qiladi. Ular haqidagi ma’lumotlarni olima jahon kutubxonalarida saqlanayotgan yuzlab arabiy va forsiy manbalarni o’rganish asnosida to’playdi. Quyidagi jadvalda olima foydalangan manbalar ro’yxatini keltiramiz:

T\l r	Manbaning muallifi	Manbaning nomi
1.	Jan Pier Kamyu	SHafqat hamshiralari
2.	Muhammad Zehniy	Mashohir an-niso
3.	Jaloliddin Rumi	Masnaviyi ma’naviy
4.	Farididdin Attor	Ilohiynoma
5.	Margaret Smit	Islomda Robiyya va boshqa so’fiy avliyolar siymosi
6.	La’li Myuldyur	SHe’rlarida
7.	Abdurahmon Jomiy	Nafahot ul-uns
8.	Imom G’azzoliy	Asarlari
9.	Abu Najib as-Suhravardiy	Asarlari
10.	Abu Hafiz Umar as-Suhravardiy	Asarlari
11.	Ibn Batutta	Asarlari
12.	Ibn Arabiy	Tarjimon ul-ashvoq, Al-futuh al-makkiyya, Xotiralar va boshq.
13.	YOqub Qadriy Karaosma	Nur bobo (roman)
14.	Faxruddin Iroqiy	Lama’at

Annamarie Shimmelning maqolasida 35 ta so’fiy ayol haqida ma’lumot berilgan [4]. Ammo Olima fikrlari va manbalar bilan tanishib, ularning barchasini ham so’fiylar sirasiga kiritish unchalik to’g’ri bo’lmasligini ko’ramiz. Bu masalaga oydinlik kiritish kelajakda ko’plab maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Balki ularni “orifa va obida ayollar” deb atash fikrga amqlik kiritishi mumkin. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bunday ayollarni xuddi shunday atagan.

Ta’kidlaganimizdek, Annamarie Shimmel o’z tadqiqotlarida ko’plab manbalarga murojaat qiladi. Jumladan, asarlarida yuqorida keltirilgan 14 ta ilmiy risolani eslab o’tadi. Ammo ular qatorida Alisher Navoiy asarlari, xususan, so’fiy zotlar tazkiri hisoblangan “Nasoyim ul-muhabbat”ni tilga olmaydi. Olima asarlarida buning sababi ko’rsatilmagan. Balki Jomiyning “Nafahot ul-uns” asaridan foydalangani sababli, uning tarjimasini hisoblangan Navoiy asariga murojaat etmagan bo’lishi ham mumkin.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat min shamoyil ul-futuvvat” asari 1495-96 yillarda yaratilgan. Unda 8-asr boshlaridan 15-asr oxirigacha Osiyo, Afrika va Evropa qit’alarida yashab faoliyat olib borgan avliyo, so’fiy va mutasavvuf allomalar, shayxlar haqida ma’lumot berilgan. Asar O’zbekiston, Turkiya olimlari tomonidan o’rganilgan. Turli tadqiqotlar yaratilgan. Bir necha bor – Kamol Eraslan (1996), Hamidxon Islomov (2011)lar tomonidan tanqidiy matni tayyorlangan. Asar muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sabablari, manbalari, avliyolik rutbasining talabu shartlari haqida ma’lumot beriladi. Asosiy qismda 770 ta shayx, avliyoning (shundan 35 tasi ayol avliyolar) hasbi holi bayon etiladi. Ko’plab rivoyat va hikoyatlar keltiriladi. “Nasoyim ul-muhabbat” 2 marta chop etilgan. Birinchi marta, 1968 yilgi nashrda 153 ta shayx haqidagi ma’lumotlar qamrab olingan. Ikkinchi marta, 2001 yilda mustaqillik sharofati bilan to’liq tarzda chop etilgan “Nasoyim ul-muhabbat” Navoiy To’la asarlar to’plamining 17-jildidan joy

egallagan. Mazkur nusxada 770 ta avliyo hasbi holi qayd etilgan. Shulardan 35 tasini orifa ayollar tashkil etadi.

Navoiyning o’zi “Nasoyim ul-muhabbat” Jomiy “Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds” tazkirasining tarjimasini ekanligini: “To ta’rix to’qquz yuz birdaki, ul kitobning ta’lifidin yigirma yil o’tub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug’ ishg’a ilik urdum va bu azim amrg’a qalam surdum...”, deya ta’kidlaydi. Ammo muallif asarni erkin va ijodiy tarjima qilish yo’lidan boradi. Unga Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi “Nafahot ul-uns”ga kirmay qolgan mashoyixlarni kiritadi. “Hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj q.a.din so’nggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog’i hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.din bu zamong’acha ulcha mumkin bor tilab topib, zikrlarin va ba’zi holotu so’zlarin o’z mahalida darj qildim”[3, 12], deya tazkirani yanada mukammallashtirganini e’tirof etadi. Asariga piri murshidi Abdurahmon Jomiy haqidagi ma’lumotlarni ham kiritib, tazkirani yanada boyitganidan faxrlanadi.

Navoiy Jomiy asaridagi 618 ta shayx sonini 770 taga etkazdi. 152 ta alloma hasbi holini o’z asariga yangidan kiritdi. Ustozi tazkirasini turkiyzabonlar uchun tushunarli bo’lishini o’ylab, soddalashtirdi va jiddiy tahrirdan o’tkazdi: “...ul kitobda dag’i avliyoulloh zikridin ba’zi so’z kim, zamon ahlig’a ko’p muhtoj un-ilayh ermas erdi itnob vahmidin tarkin tutdum va bu tarjimadin o’ksuttum...” [3, 13]

Jomiy asarida shayxlar ro’yxati Abduhoshim So’fiy bilan boshlansa, Navoiyda esa Uvays Qaramydan boshlanib, Abdurahmon Jomiy bilan yakunlanadi. Asarning “Erkaklar martabasiga etgan orif ayollar zikri” deb nomlangan so’nggi qismida 35 ta orifa ayol (736-770) haqida ham ma’lumot beriladi. Ularning tartibi Robiai Adaviyadan boshlamb, Bibichai Munajjima bilan tugaydi.

Navoiy orifa ayollar haqida ma’lumot berar ekan, o’zigacha bu borada fikr bildirilgan 3 ta asarni – Shayx Muhyiddin Arabiyning “Futuhoti Makkiya” (73-bobda deb ta’kidlaydi), Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” va Shayx Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqoti So’fiya”sini “nisvat un – obidot va niso un-orifot ahvoli zikrida alo haddihi kitobe jam’ qilibdur” [3,482], deya eslaydi.

Navoiy asar muqaddimasida, tazkirasini yanada mukammallashtirish maqsadida Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avhiyo” asaridan foydalanganini ham xotirlaydi. Unda so’fiy ayollardan birgina Robiai Adaviya haqidagina ma’lumot uchraydi. Attor o’z asarida “xoslar guruhidan bo’lgan ixlos masturasi, ishq va ishtiyoqda kuygan, yaqinlik va ehtirosga oshufta” [5, 79] ayolga bag’ishlangan qismning keltirilishini quyidagicha izohlaydi. Bu izoh Alisher Navoiy tazkirasida 35 orifa ayolning kiritilish sababiaridan birini aniqlashga ham asos beradi: “...Agar Bibi Robiani erkaklar orasida zikr qilinganining sababini so’rasalar, unga javob shuki, Payg’ambar s.a.v. buyurubdurlar:

- Alloh sizlarning suratlaringizga boqmas, balki ko’ngillaringizga boqar!” [5, 79]

Ko’ringanidek, Annamarie Shimmel ham, Alisher Navoiy ham asarlarida 35 tadan orifa ayollar haqida ma’lumot keltirishadi. Ammo ularning ro’yxatida uyg’un va tafovutli o’rinlar bor. Jumladan, ikkala muallifda ham bir xil so’fiy ayollar tasviri quyidagi 8 tani tashkil etadi, xolos: 1. *Robiyya al-Adaviyya*, 2. *Mariyam al-Basriyya*, 3. *Rayhona al-Valiyya*, 4. *Robiyya ash-SHamiyya*, 5. *SHavona*, 6. *Sari as-Soqotiyning shogirdi*, 7. *Fotima (al- Kattoniyning qizi)*, 8. *Fotima bint Mutanna*.

Navoiy asarida keltirilgan 35 tadan 27 tasi yangi ism, Shimmelda ham 27 ta yangi nom uchraydi. Bu holat ikkala manbada jami 62 ta orifa ayol faoliyati yoritilgan, degan xulosaga kelishimizga asos beradi. Ammo ayrim vaziyatlarga oydinlik kiritish taqozo etiladi. Jumladan, Navoiyda 5 ta, Shimmelda 7 ta Fotima ismli ayol keltiriladi. Buning takroriy emasligini aniqlash uchun, albatta, maxsus tadqiqot talab etiladi.

Ijodkorning orifa ayollar haqidagi mulohazalarini o'qir ekanmiz, ular faoliyatini o'rganish Navoiy ijodiy takomilida va ayrim asarlarining yozilishiga ham turtki bo'lganining guvohi bo'lamiz.

Asarda, Navoiy tasavvuf tarixidagi an'anaga binoan, Robia Adaviya hasbi holini keltirish bilan so'z boshlaydi. Hajm jihatidan qisqa satrlarda uning mo'tabar siymosini etarlicha ochib bera oladi. Uning hayoti, faoliyati bilan bog'liq hodisalar va tafakkur kengligidagi falsafaga yo'g'irilgan irfoniy g'oyalarni aniq va tushunarli tarzda ifodalaydi. Jumladan, keltirilgan ayrim fikrlaridan Robianing dunyoni anglash ko'lamini, tafakkur tarzi, olam, odam va Olloh munosabatlari borasidagi qarashi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkinki, bu Navoiyning betakror dahosi va mahoratining ifodasidir: "Salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robia so'zidurki, har nimaga samaraedur va ma'rifat samarasi yuz Tengriga kelturmaktur"; "Oz sidq ila astag'firulloh demoqlikdan, astag'firulloh deymen"; "...Banda Tengri taologa taqarrub tilar nimalardin yaxshirog'i qaysidur? Ul dedi, uldurki, bilgayki, dunyo va oxiratda andin o'zgani sevmas"; "...anduhum andin emaski, anduhgindurmen. Anduhum andindurki, anduhgin emasmen!"

Navoiy asarining hajm qamroidan kelib chiqib, so'fiy ayollar haqida qisqacha ma'lumot berish yo'lidan boradi. Jumladan, asarda Robia Adaviyaning Sufyon Savriy bilan suhbatinigina keltiradi, xolos. Ammo u tayangan manbalardan biri bo'lgan "Tazkirat ul-avliyo"da Robia bilan bog'liq 33 ta rivoyat keltiriladi. Navoiyning maqsadi so'fiy ayollar haqida to'liq ma'lumot berish emas, balki kitobxonlarni ular bilan tanishtirishdan iborat bo'lgan.

Navoiy orifa ayollarni tavsiflar ekan, ularning dunyoqarashini aniq tasvirlash bilan bir qatorda, o'z zamondoshlari va avlodlarini ma'naviy kamolotga etaklash, ularni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Jumladan, Lubobat ul-muta'abbida r.a.ning bir qancha fikrlarini keltiradi: "Ul debdurki, men Haq s.t.din uyalurmenki, meni g'ayr bila mashg'ul ko'rgay" [3, 483]; "... Tengridin ani tilaki, sendin xushnud bo'lg'ay va seni o'zidin xushnudlar maqomig'a etkurgay va seni do'stlari orasida gumnom qilg'ay" [3, 483]. Bu hikmatona fikrlar barcha davr kitobxonini ma'naviy uyg'otishga xizmat qiladi.

Navoiy orifa ayollar ro'yxatining boshida Robiya Adaviyani ko'radi. Ko'p mulohazalarini unga qiyosan keltiradi. Maryam Basriya ham Basrada Robiya bilan yaqin suhbatdoshlikda umr kechirgan. Uning xizmatini qilgan. U kabi hayoti, yashash tarzini faqat ishqda ko'rgan. Hattoki, vafoti ham ishq so'zini eshitgani ta'sirida ro'y berganini eslashadi:

Nogahon ilohiy ishqni u anglab,

Hushdin ketdi, "Alloh" deya shivirlab [4, 47].

Navoiy uning bir fikrini keltiradiki, bu inson zotiga qanoatdan, inson rizqi bilan yaratilgani, harakat bor joyda nasibasiz qolmasligidan saboq beradi: "Ul debdurki, hargiz ro'ze g'ame emadim va aning talabig'a ranj tortmadim, to bu oyatni eshittimki, "Va sizning rizqingiz osmonda va sizga va'da qilingan narsa bordir" [3, 483].

Navoiy Fotimai Barda’iyaning dunyoqarashini birgina jumla bilan ochib beradi: “Aytadilarki, shathiyot⁸ [6, 463-b.] so’zlovchi oriflardan edi”. Muallif mazkur qarashini aniqlashtirish uchun “Kim meni eslasa, u bilan birgamen” qudsiy hadisini sharhlagani ta’rifini keltiradi: “Ul soyil bilan soate so’zlar aytti va so’ngra dediki, “Zikr shudirkim, sen Haqni davomli zikr etganing holda uning zikr etganini mushohada etasan. Sening zikring uning zikrida yo’q bo’lib ketadi. Faqat uning seni zikr etgani qoladi. Orada makon ham zamon ham bo’lmaydi” [3, 487]. Ko’rinadiki, Navoiy Fotimai Barda’iyaning fikrlarini chuqur mushohada qiladi. Bu kabi mulohazalar muallif irfoniy dunyoqarashining shakllanishi va kengayishida muhim ahamiyatga ega. Vahdati vujud falsafasi bilan uyg’un g’oyalari asarlari uchun adabiy asos sifatida qabul qiladi. Teran ma’nolarga ega mulohazalaridan ko’plab asarlarini yaratishda foydalangani sezilib turadi. Bu holat shoirning falsafiy asarlari va lirikasida tasavvufiy talqinlarning kuchayishiga zamin yaratadi. Ijodkor asarlarining falsafiy sarchashmalari haqida o’ylaganda, mazkur manbalarga ham alohida e’tibor qaratish lozim. “G’iyos ul-lug’ot” muallifi shathiyot so’zini izohlar ekan, mashoyixlar bunday qarashlarni qabul ham, inkor ham qilmaydilar, deydi. Navoiyning mulohazalaridan va asarlaridagi nuqtai nazaridan u bu kabi qarashlarga ijobiy munosabatda bo’lganini sezish qiyin emas.

Xurosonlik Fotima Nisoburiya haqida ham Navoiy ehtirom bilan xabar beradi: “Abu Yazid Bistomiy q.s. anga sano aytibdur va Zunnun Misriy andin savollar qilibdur” [3, 487]. Abu Yazid “aytgan biror ma’lumotimni unga ayon emasligini ko’rmadim” [3, 487], deya uning bilim qamrovining kengligini, donishmandligini e’tirof etadi.

Mashoyixlardan biri Zunnun Misriydan ayollar qavmidan kimni ulug’ hisoblaysan deb so’raganda, “Makkada bir zaifa erdiki, ani Fotima Nisoburiya der erdilar. Qur’on maoniysi fahmida so’zlar aytur erdiki, manga ajib kelur erdi” [3, 487], deb e’tirof etadi. Bu fikr Abu Yazid va Zunnunning Fotima haqidagi fikri uyg’un ekanligini ko’rsatadi.

Kufalik Ummi Hasson dunyoqarashi ham o’ziga xos. Navoiy uning olamni va yashashdan maqsadni anglash maqomidan havaslanadi. Qanoatini targ’ib etar ekan, Sufyon Savriyning hikoyasini keltiradi. Uning fikricha, bir kuni Ummi Hasson uyiga borsa, bo’yradan boshqa narsa yo’q ekan. Sufyon, amakilaringga aytsang, senga ko’mak beradi debdi. Hasson shunday javob beribdi: “Ey Sufyon, mening ko’z va ko’nglimga bundin burun ulug’roq erding. Men hargiz dunyoni savol qilmon ul kishidinki, anga molikdur va qodirdur va mutasarrif. Nechuk savol qilg’aymen andinki, anga qodir ermas? Ey Sufyon, vallohki, men sevmasmenki, manga bir dam o’tgayki, ul dam Tengridin g’ofil bo’lub, aning g’ayrig’a mashg’ul bo’lg’aymen” [3, 487]. Ma’lumki, tasavvuf adabiyotida mol-dunyoga egalikka insonni Oллоhdan uzoqlashtiruvchi vosita deb qaraladi. Ikkinchidan insonning so’rovi faqat Oллоhga qaratilishi lozim. Ugina qodirdir. Uchinchi muhim xulosa, Tangridan o’zga narsalar, xususan, mol-dunyoga mashg’ullik Oллоhdan g’ofillikka olib keladi. Ko’rinadiki, Ummi Hasson dunyoqarashidagi komillik Navoiy asarlaridagi nuqtai nazar bilan nihoyatda uyg’un. Bular ulug’ shoirning dunyoqarashi va adabiy merosi genezisi haqida fikr yuritishimizda muhimdir.

⁸ Мухаммад Фиёсуддин “Фиёс ул-луғот” асарида шатхиёт калимасини мукамал изохлаб беради: “Шатхиёт – ирфоний луғатларда зоҳиран шариатга зид нарсалар ва шариатга хилоф сўзларни тилга олишдир, дейишган. Ва “Кашф”да ёзилишича, мастлик ва завқ таъсирида беихтиёр, баъзан вусул ҳолатида содир бўладиган сўзлардир. Жумладан, Мансур Ҳалложнинг “аналҳак”. Жунайдининг “лайса фи чуббати сиваллохи” ва Боязиднинг “субхони мо аъзама шаъни” сўзлари каби. Машойихлар мазкур шариатга хилоф калималарни инкор ҳам, қабул ҳам этишмайди (“Маъдан ул-маоний”дан)”.

Navoiy asarida keltirilgan Robiai Shomiyaning “Ko’nglingda Tangridan o’zga hech narsa bo’lmasagina, sen unga etgaysen”, degan fikri ham Hasson fikrlariga hamohangdir. Shu sababli, Navoiy unga ham alohida e’tibor qaratgan [3, 486]. “Robiai Shomiya Ahmad Abulhavoriyning zavjasi edi. U ayoli ahvolining ziddiyatli ekanligini so’zlab, goh ishq, goh uns, goh xavf maqomidagi ruhiyatini izohlaydi. Ishq g’alabasida u “mahbub ko’zumdan va o’zimdanda g’oyib bo’ldi, ammo ko’nglumdan g’oyib bo’lmadi”, uns holatida “jismim suhbatdosh bilan, qalbim jononim ila ulfatdir”, xavf holida “yo’l ozig’im ozdir, manzilimga etkazolmaydi. Ozig’im ozligiga yig’laymi yo yo’lning uzoqligiga” kabi fikrlarini eslaydi. Ishq, uns, xavf kabi holatlar tasavvuf ta’limotining asosini ifodalavchi maxsus bosqichlarni anglatadi. Mazkur fikrlarning har biri bir kitob darajasida izohlamishni taqozo etadi. Ammo Navoiy asarida ushbu tushunchalarni Robiai Shomiya misolida nihoyatda sodda va tushunarli tarzda izohlab beradi. Natijada, ularning mohiyati, bir-biridan farqli jihatlari borasida etarli tasavvurga ega bo’lamiz.

Ufayrai Obidaning ko’zlari ko’r edi. Undan birov ko’rmaslik juda og’ir bo’lsa kerak, deb so’rabdi. SHunda u “Tangridan yiroqlik va Haqqa erishish yo’lida ko’ngul ko’rliigi undan og’irroqdir”, deya javob bergan ekan. Haqiqatan ham, Tangridan yiroqlik va ko’ngil ko’rliigi inson fojialarining asosidir. Insonning har bir harakatida Ollloh nazarini his qilib yashashi jamiyatning poklanishiga asos qo’yadi. Tangrini unutmagan, ko’ngil ko’zlari ochiq insonlarning hayoti charog’on bo’ladi. Ulardan taralgan nur ijtimoiy hayotda ezgulik urug’larini sochishga xizmat qiladi. Taraqqiyot va kamolotga qo’yilgan tamal toshi vazifasini bajaradi.

Ko’rinadiki, Navoiy tazkira janri talablaridan kelib chiqib, ixchamlik va ma’naviy quyuqlikka alohida e’tibor qaratadi. U tazkirasida orifa ayollarni jamlar ekan, o’z davrida eng mashhurlarni tanlaydi va ayrim mulohazalarinigina e’tirof etadi. Ammo, shu e’tiroflar ularning dunyoqarashi va tutgan yo’li borasida mukammal tasavvur beradi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiyning mahorati fikr ifodasi uchun badiiy shakl topish va tanlashda ham yaqqol namoyon bo’ladi. Ayniqsa, so’zlarni qo’llashdagi san’atkorligini alohida ta’kidlash joiz. Muallifning asarda qo’llagan so’zlar tizimi avliyolar tafakkur chirog’idan nurlanib turadi. Jilolanadi. Takror, tardi aks san’atlari bu borada muhim vazifalarni bajargan. Ularning fikrlaridagi falsafiylik mazkur san’atlar vositasida yuzaga chiqadi. So’zlar olmos kabi tovlanadi. Orifa ayollar o’z suhbatdoshlarining nutqlaridan foydalanib, ularga ma’rifat, ta’lim va tarbiya berish yo’lidan boradilar. Ummi Ali Zavjai Ahmad bin Xizravayhning oldiga uning dong’ini eshitib, ustoz tutinish maqsadida “Balx ahlidin bir zaifa keldi va dediki, kelibmen. Tengri taologa taqarrub tilagaymen, sening xidmating vasilasi bila. Anga dedi: nechuk aning xidmati vasilasi bila manga taqarrub bilmassen?”

Islom va tasavvuf ilmi inson axloqini takomillashtiruvchi tarbiya vositasi. Ular orqali halollik, to’g’rilik, saxovat, ota-ona va yaqinlarni qadrlash, Ollloh ne’matlarini g’animat bilish, nafsini va o’zini tanish g’oyalari targ’ib etilgan. Navoiyning ko’plab asarlarida mazkur g’oyalar ifodasi etakchilik qiladi. “Jannat onalar oyog’i ostidadur” hadisi hammamizga ma’lum. “Nasoyim ul-muhabbat”da ulug’ mashoyixlar hayoti misolida mazkur g’oyaning hayotiy isbotini ko’ramiz. SHayx Abu Abdulloh Hafif Laylat ul-qadr nuriga muyassar bo’lish maqsadida tomga chiqib namoz o’qiyotgan edi. “Onasi Ummi Muhammad uy ichida. Haq s.t.ga mutavajjih o’lturub erdi. Nogoh “Laylat ul-qadr” anvori anga zohir bo’la boshiadi. Un chiqardiki, Ey Muhammad, ey farzand ulcha sen anda tilaysen, mundadur! Shayx tushti va anvorni ko’rdi. Va onasi ayog’iga tushti, andin so’ng Shayx aytur erdiki, ul vaqtdin so’ngra onam qadrin bildim” [3, 489]. “...ulcha sen anda tilaysen, mundadur” jumlasida zamirida teran falsafa va hikmat

mujassam. Bu orqali ijodkor, birinchidan, ona zotining inson hayotidagi o’rniga, uning qadriga, ikkinchidan, osmondan izlangan barcha ehtiyojlar erda ekanligiga Rumiya falsafa bilan o’quvchi e’tiborini qaratmoqda.

Asarda orifa ayollar qiyofasini yoritishda ularning o’z nutqidan foydalansh tamoyili etakchilik qiladi. Ularning nutqiy sathlari qiyofalarini mukammal ifodalab beradi. Shu sababli ham, qisqa hajmda har bir obrazning surati va siyrati tugal echimga ega bo’ladi. Ular haqidagi rivoyatlar tanlanishida ham muallif o’zining badiiy niyatidan kelib chiqadi va muvaffaqiyatli tanlovni amalga oshiradi.

Xulosa. Orifa va so’fiy ayol maqomi berilgan mazkur muhtarama zotlar faoliyati va taqdirini chuqur o’rganish, bizni Sharq ayoli tafakkur teranligidan bahramand etadi. Ular insoniyat ma’naviyatining takomillashuviga ulkan hissa qo’shgan. Yovuzliklarga qarshi yo’lni ezguliklar nuri bilan yoritgan. Ko’ngil ko’zlarim o’z tafakkur mash’allari bilan charog’on etishgan. Ularning ilm sarchashmalaridan bahramandlik bugun ham insoniyatni zulmatdan qutqaradi. Tanazzulga mahkum etuvchi urush, dunyoga hirs qo’yish va o’zlikni unutib, nafsga qul bo’lish kabi illatlardan forig’ etadi. Ayollarning jahon ijtimoiy hayotidagi yuksak maqomini belgilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Adabiyot va san’at, 1969.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT, 13-tom, Toshkent: Fan, 1997. - 282 b.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT, 17-tom, Toshkent: Fan, 2001. - 518
4. Annamarie Shimmel. Jonon mening jonimda. Toshkent: SHarq, 1999. – 172 b.
5. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot - matba ijodiy uyi, 2013. – 460 b.
6. Muhammad G’iyosuddin. G’iyos ul-lug’ot. 1-jild, Dushanbe, Adib, 1987.